



**ICHKI ISHLAR ORGANLARIDA INSON HUQUQLARI TO'G'RISIDAGI
PSIXOLOGIK G'OYALARNING RIVOJLANISHI**

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10437386>

Keldiyorov Olim Xudayorovich
*Sharof Rashidov nomidagi Samarqand
davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi*

ANNOTATSIYA

ushbu maqolada ichki ishlar organlarida inson huquqlari to'g'risidagi psixologik g'oyalarning rivojlanishi masalalari yoritilgan. Inson va jamiyat, inson va davlat o'rtasidagi munosabat, shaxsning huquqiy holati masalalari qadimdan psixologik va falsafiy, ijtimoiy-siyosiy tafakkurning dolzarb mavzui sanalib keladi.

Kalit so'zlar

ichki ishlar organlari, inson huquqlari, xavfsizlik, BMT, YuNESKO, shaxs, jamiyat, erkinlik, majburiyat, ijtimoiy-iqtisodiy vazifa, ittifoq.

Inson Huquqlari barcha insonlarning umumbashariy va ajralmas huquqlari bo'lib, qaysidir davlatga, millatga, fuqarolikka yoki dinga tegishli bo'lmasin hamma uchun bir hildir. Bu huquqlar Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasiga asoslangan. Inson Huquqlari xalqaro ko'lamda amal qilinib, xalqaro qonunlar, dunyoviy va diniy muassasalar, hukumatlar siyosati va nodavlat tashkilotlari tomonidan dunyo siyosatiga juda ham katta ta'sir ko'rsatadigan doktrinadir. Inson Huquqlari bu insonlarga berilgan imtiyoz bo'lib u dunyoning ko'pchilik taraqqiy etgan mamlakatlarida qonunlar, konstitutsiyaviy qadriyatlar normalari yoki xalqaro konventsiyalar orqali tan olingan.

Inson huquqlari⁴⁹ – insonning davlat bilan munosabatidagi huquqiy maqomini, iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy va madaniy sohalardagi imkoniyatlari hamda da'volarini tavsiflovchi tushuncha. Inson huquqlarini erkin va samarali tarzda amalga oshirish fuqarolik jamiyati va huquqiy davlatning asosiy belgilaridan biridir. Inson huquqlarini mutlaq va nisbiy Inson huquqlariga bo'lish qabul qilingan. Yashash huquqi, qiynoklarga, zo'ravonlikka, inson sha'nini yerga uradigan boshqa xil muomalaga yoki jazoga duchor etilmaslik huquqi, shaxsiy hayotning daxlsizligi huquqi, shaxsiy va oilaviy sir saqlash huquqi, o'z sha'ni hamda yaxshi nomini himoya etish huquqi, vijdon erkinligi va dinga e'tiqod qilish huquqi, shuningdek, sud tomonidan himoya qilinish va odil sudlov huquqi hamda

⁴⁹https://uz.wikipedia.org/wiki/Inson_huquqlari.



shular bilan bog'liq eng muhim protsessual huquqlar mutlaq inson huquqlari sirasiga kiradi. Qolgan hamma inson huquqlari nisbiy bo'lib, favqulodda yoki harbiy holat tartibi joriy qilingan vaziyatda cheklab yoki to'xtatib qo'yilishi mumkin. Demokratik davlatda mutlaq Inson huquqlarini har qanday vaziyatda ham cheklashga yoki vaqtincha to'xtatishga (bekor qilishga) yo'l qo'yilmaydi.

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida inson va fuqarolarning asosiy huquqlari, erkinliklari va burchlari, jumladan, shaxsiy huquq va erkinliklari, siyosiy huquqlari, iqtisodiy va ijtimoiy huquqlari, shuningdek, inson huquqlari va erkinliklarining kafolatlari belgilab berilgan (18-52-moddalar). O'zbekiston Respublikasida barcha fuqarolar bir xil huquq va erkinliklarga ega bo'lib, jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, shaxsi va ijtimoiy mavqeidan qat'i nazar, qonun oldida tengdirlar (18-modda). Jumladan, yashash huquqi – har bir insonning uzviy huquqi. Inson hayotiga suiqasd qilish – eng og'ir jinoyat hisoblanadi (24-modda). Har kim erkinlik va shaxsiy daxlsizlik huquqiga ega. Hech kim qonunga asoslanmagan holda hibsga olinishi yoki qamoqda saqlanishi; qiynoqqa solinishi, zo'ravonlikka, shafqatsiz yoki inson qadr-qimmatini kamsituvchi boshqa tarzdagi tazyiqqa duchor etilishi mumkin emas (25-26-moddalar). Har kim o'z sha'ni va obro'siga qilingan tajovuzlardan, shaxsiy hayotiga aralashishdan himoyalani va turar joyi daxlsizligi huquqiga; fikrlash, so'z va e'tiqod erkinligi xuquqiga ega (27-29-moddalar). Hamma uchun vijdon erkinligi kafolatlanadi. Har bir inson xohlagan dinga e'tiqod qilish yoki hech qaysi dinga e'tiqod qilmaslik huquqiga ega. Diniy qarashlarni majburan singdirishga yo'l qo'yilmaydi (31-modda).

Mustaqillik yillarida O'zbekistonda inson huquqlari va erkinliklarining ustunligidan kelib chiqadigan, xalqaro miqyosda qabul qilingan yangi yuridik tamoyil va talablarga asoslangan keng hukuqiy muhit vujudga keltirildi. Totalitar tuzumning tazyiq va zo'ravonligidan hukuqiy me'yorlar sari keskin burilish yasaldi. Respublika qonunlarini inson huquqlari sohasidagi xalqaro me'yorlar va andozalarga muvofiklashtirish, mazkur sohada Milliy harakat dasturini ishlab chiqish, inson huquqlarini himoya qiladigan muassasalarning yaxlit tizimini barpo etish, Inson huquqlariga oid xalqaro shartnomalar va hujjatlarga qo'shilishda davom etib, bu hujjatlar bo'yicha majburiyatlarni bajarishning , barcha davlat organlari, mansabdor shaxslar va fuqarolar shu hujjatlar talablariga so'zsiz rioya qilishining mexanizmi yaratildi. Inson huquqlari va kafolatlari O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 7,8,9,10-boblarida berilgan.

O'zbekistonda inson huquqlarini rag'batlantirish, ularga amal qilish va ularni himoya qilish masalalariga davlat siyosatining hamda xalqaro sheriklar bilan o'zaro aloqalarning ustuvor mezonlaridan biri sifatida qaraladi. Bugungi kunda mamlakatda hozirgi davr demokratiyasi va inson huquqlari mezonlariga javob



beradigan barqaror siyosiy tizim shakllantirilgan. Istiqolol tufayli O'zbekiston mustaqil xalqaro huquq sub'ekti sifatida ko'plab nufuzli xalqaro tashkilotlarning teng huquqli a'zosi bo'ldi. U, xususan, Birlashgan Millatlar Tashkiloti, YuNESKO, Xalqaro mehnat tashkiloti, Yevropa Xavfsizlik va hamkorlik tashkiloti, Yevropa Ittifoqi, Parlamentlararo ittifoq, Islom hamkorlik tashkiloti, Shanxay hamkorlik tashkiloti, Mustaqil davlatlar hamdo'stligi kabi xalqaro hamda mintaqaviy tashkilotlar bilan faol xalqaro hamkorlikni yo'lga qo'ydi.

Inson jamiyatning faol bo'lagidir. Shundan kelib chiqib, inson iqtisodiy munosabatlarning, siyosiy hamda psixologik va ma'naviy hayotning bevosita ishtirokchisiga aylantirilmas ekan, ijtimoiy jarayonlarga uzviy jalb etilmas ekan, davlatning ravnaqi, jamiyatning ma'naviy taraqqiyoti va kelajagi haqida gapirish mumkin emas.

Inson va jamiyat, inson va davlat o'rtasidagi munosabat, shaxsning huquqiy holati masalalari qadimdan psixologik va falsafiy, ijtimoiy-siyosiy tafakkurning dolzarb mavzui sanalib keladi.

Inson jamiyatda o'sib ulg'ayadi, shaxs sifatida shakllanadi va faoliyat kursatadi. Jamiyat shaxslar sifatida (individlarning) oddiy yig'indisi emas. Balki u kishilar o'rtasidagi ijtimoiy aloqalar va munosabatlarning mujassam majmui, mushtarak mahsuli sifatida maydonga chiqadi. Jamiyat – bu insonlarning umumiy manfaatlar hamda ehtiyojlari birligi asosida, ularni qondirish maqsadidagi birikuv va kishilar o'rtasidagi ijtimoiy munosabatlar, aloqadorlik, hamkorlik ifodasidir.

Shaxs va jamiyat o'rtasidagi aloqadorlik nihoyatda serqirra bo'lib, turli shakl va mazmunga ega. Shaxsning jamiyat bilan aloqasi, avvalo oila, ta'lim-tarbiya va mehnat jamoalari kabi boshlang'ich bo'g'inlar vositasida amalga oshadi. Jamiyatni katta bir vujud (organizm) deb qaraladigan bo'lsa, shaxs ana shu vujudning muhim hujayrasidir. Shaxs muayyan jamoalar, ijtimoiy guruhlar tarkibida shakllanadi, ijtimoiy aloqalar sohibi sifatida jismoniy va ma'naviy kamolotga yetadi. Jamiyatning umumiy ijtimoiy ongi, ma'naviyati, madaniy darajasi, siyosiy-huquqiy saviyasi har bir shaxs tarbiyasi va fe'l-tavoriga singib boradi. Shu bilan birga inson o'zigagina xos xususiyat va fazilatlarga ham ega bo'ladi. har bir inson tanho (individual) va u betakrordir.

Jamiyat shaxsning hayot faoliyati, erkin rivojlanishi uchun zarur bo'lgan ijtimoiy shart-sharoitlar yig'indisi bo'lib hisoblanadi. Jamiyat va shaxs aloqadorligi dialektikasi shundan iboratki, har bir shaxsning erkin rivoji, o'z iste'dodi, qobiliyatlarini namoyon eta olishi pirvardida butun jamiyatning rivoji, ravnaq topishi demakdir.

Har qanday huquq, shu jumladan inson huquqlari insonning biologik mohiyati bilan emas, balki uning ijtimoiy mohiyati, muayyan jamiyat a'zosi ekanligidan kelib chiqadi. Fransuz burjua inqilobi (1789 y.) dunyoga bergan «Inson



va fuqaro huquqlari Deklaratsiyasi» tabiiy huquq maktabi g'oyalaridan kelib chiqib, inson huquqlariga baho bergan. Deklaratsiya tamoyillariga muvofiq insonga ikki jihatdan izoh beriladi: bir tomondan, alohida – olingan inson, odam tarzida. Ikkinchi tomondan – fuqaro, ya'ni biron bir jamiyatning, siyosiy-ijtimoiy guruhning a'zosi sifatida tavsirlanadi. Shunga binoan, Deklaratsiya «inson huquqlari» va «fuqaroning huquqlari»ni aniq-tiniq belgilab bergan. Inson huquqlari qatoriga u tug'ilishi bilan mavjud bo'ladigan, odamning insoniyat jamiyatiga qo'shilgunga qadar holatidagi huquqlari yig'indisi kiradi. Fuqaroning huquqlari deganda esa, inson siyosiy jamiyatga qo'shilgandan keyin ega bo'ladigan huquqlari majmui tushuniladi.

G.Grotsiy. B.Spinoza, Dj. Lokk, Sh-L. Monteske, T.Jeferson va boshqa ko'plab huquqshunos, faylasuf olimlar tabiatdan kelib chiqib, har bir kishiga: yashash huquqi. erkinlik huquqi va mulk huquqi tegishlidir, deb tkidlaydilar.

Fransuz Deklaratsiyasi inson huquqlari qatoriga erkinlik, mulk, xavfsizlik va zulmga qarshilik ko'rsatish huquqlarini kiritadi; fuqaroning huquqlariga esa fuqaroning davlat-siyosiy hayotida ishtirok etish imkoniyatlarini beriuvchi huquqlar, davlat hokimiyatining o'zboshimchaligini ta'minlovchi huquqlarni kiritadi.

Shaxsning davlatdagi huquqiy maqomi quyidagi asosiy belgi va xususiyatlar bilan tavniflanadi:

- huquqiy maqomni belgilovchi huquq, erkinlik va majburiyatlar har bir shaxs uchun teng hisoblanadi, har kim belgilab qo'yilgan huquqlardan foydalanishda va majburiyatlarni o'tashda teng yuridik imkoniyatga egadir;
- qonunda, boshqa huquqiy normalarda mustahkamlangan huquq, erkinlik va majburiyatlar davlat tomonidan muhofaza etiladi, ularni amalga oshirish ham davlat tomonidan, ham fuqarolar tomonidan ta'minlanadi;
- huquqlar, erkinlik va majburiyatlar jamiyat va davlat, shuningdek, har bir shaxs manfaatlari nuqtai nazaridan kafolatlanadi;
- shaxsning huquqlari, erkinlik va majburiyatlari mushtarak tizim sifatida mavjud bo'lib, jamiyat hamda undagi ijtimoiy munosabatlar rivojlangan sayin ular muntazam ravishda kengayib va ichki mazmuni teranlashib boradi;
- huquqlar, erkinlik va majburiyatlar davlat taraqqiyotining har bir bosqichida uning zaruriy sharti hamda shaxsning har tomonlama va izchil rivojlanishiga zamin bo'lib hisoblanadi; ular davlatning mohiyati va tabiatini ifoda etadi;
- huquqlar, erkinlik va majburiyatlar o'zining ijtimoiy-iqtisodiy vazifasiga ko'ra yagonalik va bir butunlik sifatleri bilan xarakterlanadi.



2004 yil 10 dekabrda BMT Bosh Assambleyasi – inson huquqlari sohasidagi ta’limni amalga oshirishga ko’maklashish maqsadida – **Inson huquqlari sohasidagi Jahon ta’lim dasturini** e’lon qilgan. BMTning Inson huquqlari bo’yicha Oliy komissari Boshqarmasi Jahon ta’lim dasturining bajarilishini global darajada muvofiqlashtirib borishi belgilangan.

Inson huquqlari sohasidagi Jahon ta’lim dasturi – doimiy amalga oshiriladigan uzluksiz bosqichlardan iborat tashabbusdir. Ushbu jarayon bilan hayotimizning barcha sohalarini keng qamrab olishga ko’maklashish uchun davlatlar inson huquqlari bo’yicha ta’limni boshlang’ich va o’rta maktab, oliy ta’lim tizimida, o’qituvchi va targ’ibotchilar, davlat xizmati, huquqni muhofaza qilish organlari xodimlari va harbiylar, shuningdek, ommaviy axborot vositalari vakillari o’rtasida singdirib borishi taqozo etiladi.

Jahon ta’lim dasturi BMTning Inson huquqlari sohasidagi ta’lim va tarbiya to’g’risidagi deklaratsiyasini milliy darajalarda amalga oshirishni faollashtirishga yordam beradigan amaliy vositadir. O’tgan davrda Jahon ta’lim dasturi inson huquqlari sohasidagi ta’lim bo’yicha milliy sa’y-harakatlar negizida quyidagi ketma-ket bosqichlarda izchillik bilan amalga oshirilmoqda:

birinchi bosqich – 2005-2009 yillarni qamragan bo’lib, unda boshlang’ich va o’rta maktablar tizimiga inson huquqlari bo’yicha ta’limni integratsiya qilishga e’tibor qaratildi;

ikkinchi bosqich – 2010-2014 yillarda amalga oshirilgan oliy ta’lim tizimiga inson huquqlari sohasidagi ta’limni uyg’unlashtirish hamda o’qituvchilar va ta’lim sohasi xodimlari, fuqarolik jamiyati institutlari va davlat organlari, huquqni muhofaza qilish organlari xodimlari va harbiy xizmatchilarni ushbu soha bo’yicha tayyorlashga bag’ishlandi;

uchinchi bosqich – 2015-2019 yilarga mansub erkin, mustaqil va xolis ommaviy axborot vositalarining adolatni targ’ib qilish, kamsitishlarga yo’l qo’ymaslik, hurmat va erkinlikni ta’minlashdagi muhim rolini e’tirof etgan holda, inson huquqlari sohasida OAV mutaxassislari va jurnalistlarni tayyorlashga alohida urg’u berishdan iborat bo’ldi;

to’rtinchi bosqich – 2020 yildan boshlangan va 2024 yilga qadar davom etadi, bunda yoshlarni tenglik, inson huquqlariga amal qilish va kamsitmaslik ruhida tarbiyalash, inklyuziv, tinch va osoyishta jamiyatni yaratishga imkon beruvchi ta’lim berishga asosiy e’tibor qaratilmoqda.

Forumning asosiy Milliy tashkilotchisi O’zbekiston Respublikasi Hukumati nomidan Inson huquqlari bo’yicha O’zbekiston Respublikasi Milliy markazi hisoblanadi. Samarqand anjumani BMT Inson huquqlari bo’yicha Oliy komissari Boshqarmasi, Inson huquqlari bo’yicha Oliy komissarning Markaziy Osiyo bo’yicha mintaqaviy byurosi, BMTning mamlakatimizdagi jamoasi, YeXHT



Demokratik institutlar va inson huquqlari bo'yicha byurosi, YeXHTning O'zbekistondagi Loyihalari muvofiqlashtiruvchisi ofisi, Fridrix Ebert jamg'armasi kabi ishonchli xalqaro hamkorlarimiz bilan hamjihatlikda tashkil etilmoqda.

Xalqimizning asriy an'alarini hisobga olib, inson huquqlari to'g'risidagi psixologik g'oyalarning rivojlanishi qadriyat va olijanob g'oya jamiyatda chuqurroq anglab yetilishiga va qaror topishiga yo'naltirilgan keng chora-tadbirlar kompleksini amalga oshirish bo'yicha olib borilayotgan ishlarning darajasini yanada yuksaltirish, jamiyatda alohida hurmat-ehtirom muhitini shakllantirish, sog'lom va barkamol avlodni tarbiyalash, oilani mustahkam, sog'lom va ahil bo'lishida mahalliy davlat hokimiyati organlari va jamoat tashkilotlarining hamkorligini kuchaytirish maqsadga muvofiq.

Shuning uchun hozirgi davrda yoshlarning huquq va erkinliklari, qonuniy manfaatlarini respublikamiz ijtimoiy-siyosiy hayotidagi faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha ulkan ishlar amalga oshirildi. Buning natijasida mamlakatimizda barkamol avlod kamol topishiga ishonchimiz komil.

FOYDALANILGAN DABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi – T.: «O'zbekiston», 1992.
2. Z.Islomov. «Davlat va huquq», Umumnazariy masalalari. – T.: «Adolat», 2000.
3. A.Saidov, U.Tojixonov. «Davlat va huquq asoslari». T.: «O'zbekiston», 1999.
4. X.T.Odilqoriev. «O'zbekiston Respublikasida qonun chiqarish jarayoni». T. «O'zbekiston», 1995.
5. «Huquqiy demokratik islohotlar». T. «O'zbekiston», 1997.
6. Inson huquqlari umumjahon Deklaratsiyasi
7. Bola huquq tugrisidagi Konvensiya
8. «Inson huquqi», «Adolat», 1998 y.
9. O.S.Qodirov. Umumiy psixologiya // O'quv qo'llanma. - Samarqand, 2022.-250 b.
10. O.S.Qodirov, Sh.N.Xotamov. Ijtimoiy psixologiya // Darslik. - Samarqand, 2023.-360 b.
11. (Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 29.01.2022 y., 06/22/60/0082-son, 18.03.2022 y., 06/22/89/0227-son, 21.04.2022 y., 06/22/113/0330-son; 10.02.2023 y., 06/23/21/0085-son).
12. https://uz.wikipedia.org/wiki/Inson_huquqlari